



## BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI YOZMA NUTQINI O‘STIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI.

**Abdulxayeva Musharraf Usmonjon qizi**

*Qo‘qon davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada til va nutqning farqli tomonlari. Til va nutq haqidagi fikrlarni rivojlangan davrlari va til va nutq haqida olimlarning fikrlari. Yozma va og‘zaki nutqning dars jarayonida qanday rivojlanib borishi haqida ma’lumotlar beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Til, nutq, savod o‘rgatish, yozuv, harf, tovush, fonema, so‘z, gap, matn.*

Biz nutq haqida ma’lumot berishdan avval til va nutqni bir-biridan farqlab olishimiz lozimdir.

“Til va nutq hodisalarini o‘zaro farqlab yondashish dastlab VIII-IX asrlarda shakllangan arab tilshunosligining til o‘rganish usullarida, keyinchlik esa V.Glumboldning tildagi “energio” (harakat, jarayon, kuch) va “ergon” (mahsulot), A.Shteyntalning tildagi “barqaror mohiyat” va “harakatdagi kuchlar”, Boduen de Kurtenening “tildagi barqarorlik va o‘zgaruvchanlik” haqidagi ta’limotlarida uchratamiz. Lekin til bilan nutq hodisalarini va ularga hos birliklarni tom ma’noda ilmiy – nazariy hamda amaliy farqlash; til va nutq birliklarining mohiyatini ochish yo‘llari, “til” va “nutq” tushunchalariga batamom yangi mazmun berilishi F. de Sosyur va uning izdoshlari yaratgan ta’limot bilan bog‘liqdir” deb o‘rganamiz.

Lekin “til va nutq odobi, nutqiy ma’daniyat, nutq san’ati haqidagi fikrlar, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodida yuqori darajada aks etgan” ini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, A.Navoiyning “Muhokamat ul – lug‘atayn” asarini o‘qib o‘rganib chiqsak. Uchbu asarda A.Navoiy ko‘ngilni dengizga, so‘zni durga, so‘zlovchini esa g‘avvosga qiyoslaganini ko‘rishimiz mumkin. Demak bu fikrlardan bilinadiki til – umumiylukka, nutq esa xususiylikka egadir.

Nutq – kishi faoliyatining bir turi bo‘lib, o‘zaro aloqa va xabar almashinish, hamda o‘z fikrini his – hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta’sir etish kabi vazifalarni bajaradi.

“Nutqning shakllanishi bolaning umumiyl rivojlanishining ehtimol eng muhim shartidir. Nutq – bosh miya tomonidan ta’minlanadigan muhim oliy ruhiy vazifadir va uning rivojlanishida kuzatiluvchi har qanday og‘ishlarga vaqtida e’tibor berilishi lozim.” Haqiqatdan ham nutq bolaligimizdan sekin astalik bilan rivojlanib boradi. Kimdadir tez, kimdadir esa sekin astalik bilan shakllanadi. Bu ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu sababli ham boshlang‘ich sinfda o‘tiladigan barcha darslarning tag zaminida nutq o‘stirish jarayoni muhim o‘rin egallaydi. Chunki, o‘quvchilarning o‘qishi, yozishi, o‘z fikr mulohazalarini, tasavvur va tushunchalarini boshqalarga yetkaza olishligi ularning nutqini qay darajada rivojlanganligi bilan bog‘liqdir.

1 – sinfda bolalarga savod o‘rgatish jarayonida ham nutqning rivojlanishiga ahamiyat beriladi. Masalan 1 – sinfga yangi kelgan bolaga hech qachon ona tili darslari o‘tilmaydi. Avval tayyorgarlik davri so‘ngra savod o‘rgatish va yozuv darslari o‘tilib, og‘zaki va yozma



nutq rivojlantirilib sekin astalik bilan ona tili darslari boshlanadi. Chunki bolalarda harf, tovush, fonema, so‘z, gap, matn haqidagi yetarlisha tushunchalar mavjud bo‘lmaydi.

Savod o‘rgatish va yozuv darslarini bir biriga hamohang tarzda olib borilsagina ko‘zlagan maqsadimizga erisha olamiz. Masalan: Uu harfini olaylik savod o‘rgatish jarayonida bosma katta U, bosma kichkina u, yozma katta U, yozma kichkina u deb talaffuz qilib tushuntiramiz. U harfi unli harf hisoblanadi chunki bo‘g‘zimizdan chiqayotgan havo hech qanday to‘sinqqa uchramaydi. “U tilimizning yuqori qismida hosil bo‘ladi, lablangan” sababi hosil bo‘lishida lablarimiz ishtirok etayapti deb o‘ragatamiz. Yanada yaxshi eslab qolishlari uchun rasmlar asosida darslarni tashkillaymiz. Yozuv darsida esa savod o‘rgatish jarayonida o‘rganilgan harflarni va ushbu harflar qatnashgan so‘zlarni yozdirish orqali bolalarning nutqini rivojlantirib boramiz. Buning natijasida bolalarda yozma nutq rivojlanib, ongli ravishda o‘sib boradi.

“Demak, til fikrni ifodalabgina qolmasdan, uning shakllanishiga ham xizmat qiladi. Shuning uchun bolalar tafakkuri, eng avvalo, ona tli orqali o‘stiriladi.”

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bolalarning yozma va og‘zaki nutqini rivojlantirishda savod o‘rgatish, yozuv va ona tili darslari o‘rni benihoya kattadir. Agar o‘qituvchi dars jarayonini to‘g‘ri tashkillab bolalar bilan hamohang tarzda ishlay olsa ularni nutqi tez va oson rivojlanishiga olib keladi. Bu jarayon esa o‘qituvchidan faqatgina pedagogik mahoratni talab etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. H. Ne’matov, O. Bozorov “Til va nutq” Toshkent: “O‘qituvchi” 1993. 7- bet.
2. Mirhojiddinovna, J. D., Shavkatovna, A. M., & Alijonovna, M. D. (2022). Lingupoetic Features Of Unconventional Combinations And Agricultural Terms In Literary Texts. Journal of Positive School Psychology, 6(11), 1599-1604.
3. Abdulxayeva, M. (2023). ONA TILI VA O ‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA DIDAKTIK METODLARNING TUTGAN O ‘RNI. Scienceweb academic papers collection.
4. Musharrafa, A. (2023). Relationship of Mother Language and Reading Literacy with Natural Science. World of Science: Journal on Modern Research Methodologies, 2(3), 78-82.
5. Abdulkhayeva, M. The Role of Dictations in the Development of Students' Written Speech in the First Class. International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology.
6. Abdulxayeva, M. (2023). O’Z DIKTANT YOKI YODDAN YOZUV DIKTANTI. Interpretation and researches, 1(1).
7. Abdulxayeva, M. (2023). AKTdan foydalangan holda diktant olish metodikasi. Scienceweb academic papers collection.
8. Musharraf, A. (2023). EDUCATIONAL DICTATION AND ITS TYPES. Open Access Repository, 9(6), 211-216.

9. Abdulhayeva, M. (2023). EDUCATIONAL DICTATION AND ITS TYPES.  
NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX-A Multidisciplinary Peer ReviewedJournal.